Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 27-avgust, № 176 (9346) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

EL-YURT TARAQQIYOTIGA HISSA QO‘SHGAN VATANDOSHLARIMIZ E’TIBORDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan bir guruh vatandoshlarimizni taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.



Tadbirda davlatimiz rahbari yig‘ilganlarni ulug‘ va mo‘tabar ayyom – O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi bilan samimiy tabrikladi.

– 35 yil – tarix uchun juda qisqa davr. Lekin ortda qolayotgan yillar o‘zining ko‘lami, yutuq va natijalari bilan asrga tatigulik davr bo‘ldi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi, – dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, mazkur o‘zgarishlarning haqiqiy muallifi – mehnatkash va oliyjanob xalqimiz.

Mustaqillikning qadr-qimmati qishloqda rizq-ro‘z yaratayotgan fermer va dehqonlar, farzandlarga ta’lim-tarbiya berayotgan ustozlar, inson hayotini asrayotgan shifokorlar, yangi g‘oya va kashfiyotlar ustida izlanayotgan olimlar, zamonaviy korxonalar barpo etayotgan sanoatchi va tadbirkorlar mehnatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, shahar va qishloqlarni obod qilayotgan quruvchi va arxitektorlar, madaniyat, san’at va sport sohasi vakillari, islohotlar ijrosini mahalla va xonadonlarga yetkazayotgan davlat xizmatchilari, joylarda odamlarni ezgu maqsadlar atrofida birlashtirayotgan nuroniylar va mahalla faollari, yurt tinchligi va xalq osoyishtaligini ta’minlayotgan harbiylar hamda huquq-tartibot xodimlarining hissasi alohida qayd etildi.

So‘nggi o‘n yilda mamlakatimizga 160 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya kirib keldi, iqtisodiyot hajmi 2,5 barobardan ziyod oshdi. Joriy yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 180 milliard dollardan oshirish maqsad qilingan. Sanoat, servis va qishloq xo‘jaligi sohalarida 5 million 700 mingta doimiy ish o‘rni yaratildi.

Davlat va xususiy sektor ishtirokida 1 million 500 ming o‘rinli maktablar, 342 ming o‘rinli maktabgacha ta’lim tashkilotlari va 62 ming o‘rinli shifoxonalar barpo etildi. 83 ming kilometrlik umumiy foydalanishdagi ichki yo‘llar qurildi hamda ta’mirlandi. 8 million aholi yashaydigan xonadonlarga ilk bor markazlashgan ichimlik suvi yetkazib berildi, yana 11,5 million aholining suv ta’minoti yaxshilandi. O‘tgan o‘n yilda 650 ming oila yangi uy-joyga ega bo‘ldi.

– Yangi O‘zbekistonning eng katta natijasi bu o‘zgargan inson, o‘z kuchiga ishongan fuqaro, ertangi kunga daxldorligini his qilayotgan jamiyatdir, – dedi Prezidentimiz.

Ana shu ezgu o‘zgarishlarga munosib hissa qo‘shayotgan fidoyi insonlarning 558 nafari mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

– Har biringizning mashaqqatli mehnat yo‘lingiz, erishgan yutuqlaringiz, yurtimiz taraqqiyotiga qo‘shayotgan munosib hissangizni juda yaxshi bilaman, – dedi Prezidentimiz.

Mukofotlanganlar orasida Xorazm viloyatida ko‘p yillar davomida bunyodkorlik ishlariga hissa qo‘shib, bugun nuroniylarga boshchilik qilayotgan Rustam Sultonov, Surxondaryoda cho‘llarni o‘zlashtirish va dehqonchilikni rivojlantirishga umrini bag‘ishlagan mehnat faxriysi Abdusattor Qurbonov bor.

Bekobod metallurgiya kombinatida uzoq yillardan buyon po‘lat erituvchi bo‘lib ishlayotgan G‘ulomjon Turonovning “Xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi” faxriy unvoni bilan taqdirlangani butun metallurglar mehnatiga berilgan yuksak bahodir.

Paxtachilik va g‘allachilikda yuksak natijalarga erishib, o‘z maktabini yaratgan namanganlik Ilhom Ziyovuddinov, yil davomida pilladan yuqori hosil olayotgan buxorolik Jamila Xudoyberdiyeva, chorvachilikda ilg‘or texnologiyalarni joriy etib, naslchilikni rivojlantirayotgan qoraqalpog‘istonlik Esenbay Aytimuratov hamda suv yo‘qotishlarini kamaytirish va energotejamkor tizimlarni tatbiq etishga hissa qo‘shayotgan samarqandlik irrigator Aslanqul Karimqulovning mehnati munosib e’tirof etildi.

Prezidentimiz davlat mukofotini olgan har bir insonning mehnati va ko‘rsatgan jasorati alohida e’tirofga munosib ekanini ta’kidladi.

Shu kunlarda joylarda unvon, orden va medallarni qabul qilib olayotgan yurtdoshlarimizga ham samimiy tabriklar aytildi.

Marosimda mamlakatimiz yetakchisi mukofotlarni o‘z egalariga tantanali ravishda topshirdi.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz besh yilligini nishonlash arafasida xalqimizga xos ezgulik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, kechirimli bo‘lish kabi oliyjanob fazilatlarni namoyon etgan holda hamda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdig‘i sifatida **“Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”gi Farmon**ni imzoladi.*

Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o‘tayotgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan **852** nafar shaxs afv etildi.

Afv etilgan shaxslarning **604** nafari jazodan to‘liq ozod qilinadi, **115** nafari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinadi, **52** nafariga tayinlangan jazo yengilroq jazo bilan almashtiriladi. Shuningdek, **81** nafar shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartiriladi.

Afv etilganlarning **7** nafarini chet el fuqarolari, **49** nafarini ayol, **37** nafarini 60 yoshdan oshgan erkaklar, **375** nafarini yoshlar hamda **63** nafarini taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishlari, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishlari uchun ularga ko‘mak berish bo‘yicha mas’ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

O‘zA.

E’tirof

MUKOFOTLAR O‘Z EGALARIGA TOPSHIRILDI

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan Prezidentimizning tegishli farmonlariga muvofiq bir guruh yurtdoshlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan edi. Kecha Oliy Majlis Senatida ushbu unvon, orden va medallarni o‘z egalariga tantanali topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Mukofotlarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva topshirdi.

Mukofotlanganlar orasida davlat xizmatchilari, olimlar, pedagoglar, shifokorlar, sportchilar, harbiy xizmatchilar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, madaniyat va san’at xodimlari, ommaviy axborot vositalari vakillari bor.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar ta’kidlaganidek, davlat mukofotlari nafaqat yurtimiz taraqqiyotiga qo‘shilgan munosib hissaning yuksak e’tirofi, balki har bir sohada sidqidildan mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizni yangi marralar sari ruhlantiruvchi muhim rag‘batdir. Ayniqsa, mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi arafasida bunday yuksak e’tirofning ahamiyati yanada ortib, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo‘lidagi fidokorona mehnatning qadrlanayotganini ko‘rsatadi.

Taqdirlanganlar Prezidentimizning yuksak ishonchi va e’tibori uchun samimiy minnatdorlik bildirib, ushbu mukofotlarni o‘z mehnatlariga berilgan katta baho sifatida qabul qilishlarini ta’kidladi. Ular bundan buyon ham o‘z kasbiga sadoqat bilan yondashib, Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yo‘lida munosib hissa qo‘shishlarini bildirdi.

“Xalq so‘zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Davlat dasturi:

BELGILANGAN VAZIFALAR IJROSI MUHOKAMASI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda dastlab “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 2026-yil birinchi yarmida bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining hisoboti muhokama qilindi.

Kun tartibidagi masala b0yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo‘chqorov axborot berdi.

Davlat dasturi ijrosi yalpi majlisga qadar siyosiy partiyalar fraksiyalari va Qonunchilik palatasi qo‘mitalarida dastlabki tarzda atroflicha muhokama etildi.

Ta’kidlanganidek, jahon iqtisodiyotida murakkab va yuqori noaniqliklar saqlanib qolayotgan sharoitda mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlari ta’minlanmoqda. Joriy yilning birinchi yarmida yalpi ichki mahsulotning real o‘sish sur’ati 8,5 foizni tashkil etib, YAIM hajmi 1 072,7 trillion so‘mga yetdi. Sanoatda – 8, xizmatlar sohasida – 9,2, qurilishda – 13,7, qishloq xo‘jaligida 4,7 foiz o‘sish qayd etildi.

➡ 2

Mustaqilligimizning 35 yilligiga

Nig‘matilla YO‘LDOSHEV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori

MUSTAQILLIK – HUQUQ VA ERKINLIKLAR RO‘YOBI, QONUN USTUVORLIGI VA ADOLAT TANTANASI

Jahondagi barcha ozod millatlar qatori xalqimiz uchun ham tengsiz ne’mat – Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligini “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yarataylik!” degan ezgu shior va yanada ulkan maqsadlar bilan kutib olmoqdamiz.

Albatta, bunday shukuhli kunlar bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘limizga nazar tashlash, erishilgan natijalarni xolis baholash va zamon chaqiriqlariga mos tarzda yangi vazifalarni belgilab olish imkoni hamdir.

Shu nuqtayi nazardan, zimmasiga qonun ustuvorligi va adolat tantanasini ta’minlashga, inson huquqlarini, davlat hamda jamiyatning manfaatlarini ishonchli himoyalashga hissa qo‘shishdek sharafli vazifa yuklatilgan prokuratura tizimining bugungi faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borish ham muhim ahamiyatga ega.

Qayd etish joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdagi inson huquq va erkinliklarining bevosita amaliyotda o‘z in’ikosini topishi, davlat organlari bilan munosabatlarda yuzaga keladigan noaniqliklarning inson foydasiga talqin qilinishi kabi muhim qoidalar prokuratura uchun ham o‘ziga xos yangi bosqichni boshlab berdi. Shu bois aholi bilan bevosita muloqotga kirishish, sayyor qabullar o‘tkazish, muammolarni joyiga chiqqan holda o‘rganish va eng muhimi, fuqaroning buzilgan huquqini amalda tiklashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

➡ 3

Faxr

O‘ZBEKISTON TANHO, VATAN YAGONA

Yurtim bor tog‘i cho‘ng, falakda boshi,
Bepoyon quchog‘i xalqlarga makon.
Qo‘shig‘imning avji, so‘zim quyoshi,
O‘zing O‘zbekiston, jonajon Vatan.

Shoirlar jamoling ta’riflash uchun
Go‘zal tashbeh izlab ovora bo‘lgan.
O‘zing borliqdagi eng suluv ochun,
Ellar atrofingda sayyora bo‘lgan.

Husningdan qamashar quyoshning ko‘zi,
Dunyo sevgan Samarqand, Buxoroni.
Yangi Toshkent – buyuk Sharqning yulduzi,
Amir Temur – jahon sohibqironi.

Kolumbdan besh yuz yil avval daf’atan
Beruniy kashf etgan Amerikani.
Al-jabr – Xorazmiy ochgan ilm-fan –
Algoritm zabt etgan besh qit’ani.

Bugun yangilangan O‘zbekistonning
Dunyoda yuksaldi oliy maqomi.
Yangiligin aytsam, go‘zal bo‘stonning,
Jo‘shar shoirlarning nazmiy ilhomi.

Bunyodkor, tanti xalq o‘ttiz besh yilda
Ko‘rsatdi aql va birdamlik kuchin.
Mustaqillik nomli ishonchli yo‘lda
Bari inson uchun, kelajak uchun.

Qo‘lni qo‘lga berib, intildi olg‘a
Bir maqsad yo‘lida birlashgan inson.
Bu diyor makondir turli xalqlarga,
Maqsad bir, niyat bir, yagona Vatan.

Qancha dovonlar bor, kutmoqda bizni,
Yurt baxtli kelajak sari ravona.
Yer yuzi tanidi kimligimizni,
O‘zbekiston tanho, Vatan yagona.

Tole berdi shunday yuksak imkonni,
Bu elga hamisha baxtlar yo‘llasin.
Tangri yorlaqasin O‘zbekistonni,
Sizday rahnamoni Xudo qo‘llasin!

Kengesboy KARIMOV,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi,
Qoraqalpog‘iston xalq shoiri

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 27-avgust

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti:

RAQAMLAR VA ULAR ZAMIRIDAGI MOHIYAT

O‘ttiz besh yil. Bu – tarix uchun qisqa, ammo inson umriga nisbatan salmoqli davr. O‘tgan yillar davomida mamlakatimiz iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Bugun biz oldimizda turgan vazifalarga yangicha nigoh bilan qaray olamiz. Chunki amalga oshirilgan islohotlarning mazmuni va natijalarini raqamlar bilan emas, inson hayotidagi ta’siri orqali baholash imkoniyati paydo bo‘ldi.

Yuksalish odimlari

Ayniqsa, so‘nggi o‘n yillik O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Bu davrda yalpi ichki mahsulot hajmi o‘sdi, investitsiyalar ko‘paydi, tashqi savdo aylanmasi kengaydi, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni ortdi. Ammo iqtisodiyotning asl mazmuni ularning ortidagi inson taqdirida. Yangi ish o‘rniga ega bo‘lgan yigit-qiz, o‘z ishlab chiqarishini kengaytirgan tadbirkor, yangi texnologiyani o‘zlashtirgan muhandis, eksport bozoriga chiqqan fermer, oilasi daromadi oshgan oddiy fuqaro – iqtisodiy islohotlarning haqiqiy qiymati, avvalo, ana shu insonlar hayotida namoyon bo‘ladi.

2017-yildan boshlangan iqtisodiy liberallashuv mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotidagi muhim burilish nuqtalaridan biri bo‘ldi. Ayniqsa, valyuta operatsiyalarining erkinlashishi iqtisodiy faollik uchun yangi imkoniyatlarni kengaytirdi. Jahon banki ham O‘zbekistonning tashqi savdo va valyuta tizimining liberallashtirilishini mamlakat iqtisodiyotining ochilishida muhim omillardan biri sifatida baholadi.

Iqtisodiyotdagi liberallashuv faqat valyuta operatsiyalarining erkinlashuvi emas, balki ishonch muhitining shakllanganidir.

Tadbirkor davlatga ishonsa, sarmoya kiritadi. Investor qonun ustuvorligini his etsa, uzoq muddatli loyihani boshlaydi. Fuqaro o‘z mehnati natija berishiga inonsa, tashabbus ko‘rsatadi. Demak, iqtisodiy islohotlarning eng muhim kapitali – ishonch.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarga munosabat ham tubdan o‘zgardi. Avvallari xorijiy investitsiya deganda ko‘pincha katta zavod, yirik korxona yoki tabiiy resurslar sohasi ko‘z oldimizga kelar edi. Bugun esa investitsiya tushunchasi ancha kengaydi. Bu – texnologiya va yangi ish o‘rni, zamonaviy boshqaruv madaniyatiyu eksport bozorlariga chiqish imkoniyati. Bu – mahalliy



mutaxassislarning yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashi hamda mahalliy korxonalarning xalqaro ta’minot zanjirlariga kirishi demak.

2025-yil 1-dekabr holatiga O‘zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni 17,9 mingtaga yetgan. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra bu ko‘rsatkich so‘nggi besh yilda 1,9 barobar oshgan. 2025-yil yakunida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 591,1 trln. so‘mni tashkil etdi. Bu 2024-yildagiga nisbatan 10,5 foiz ko‘p. Shu yili xorijiy investitsiyalar va kreditlardan foydalanish hajmi 34,5 mlrd. dollarga yetdi. Bu ko‘rsatkichlarning o‘ziyoq O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya jarayonlari qanday katta ko‘lamga chiqqanini ko‘rsatadi.

E’tiborli jihat shundaki, xorijiy kapital tobora ko‘proq sanoat, qurilish, energetika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xizmatlar, savdo va qishloq xo‘jaligi sohalariga kirib bormoqda. Bu diversifikatsiya mamlakat iqtisodiyotining tashqi ta’sirlarga chidamliligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ma’lumotlarga ko‘ra 2025-yil noyabr oyi holatida xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarning eng katta qismi savdo va sanoat sohalarida faoliyat yuritgan.

Navbatdagi vazifa bu jarayonni yanada chuqurlashtirish, investitsiyalarni yuksak texnologiyali, eksportbop va yuqori qo‘shilgan qiymatli sohalarga yo‘naltirishdan iborat.

Biz ko‘pincha mamlakatimizning tabiiy resurslari, qulay geografik joylashuvi va katta ichki bozori haqida gapiramiz. Albatta, bularning barchasi muhim. Lekin bizning eng katta investitsiyaviy ustunligimiz – inson kapitali va unda mujassam bo‘lgan tadbirkorlikka intilish, muhandislik va texnik salohiyat, yangi bilim hamda texnologiyalarni tez o‘zlashtirish qobiliyatiyu zamonaviy kasblarga qiziqish.

Ana shu kapital sifat jihatdan yuksaltirilsa, mamlakatimizga kirib kelayotgan har bir investitsiyaning samarasi bir necha barobar ortadi. Shuning uchun maktab ta’limi, oliygoh, kasb-hunar tayyorgarligi, raqamli ko‘nikmalar, xorijiy tillar, muhandislik va zamonaviy menejment masalalari iqtisodiy siyosatning chetida emas, balki markazida bo‘lishi kerak. Chunki kelajakni, avvalo, bilimli, malakali va tashabbuskor insonlar barpo qiladi.

Bugun oldimizda davlat korxonalarini isloh qilish, raqobatni kuchaytirish, energetika sohasida bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish va inflyatsiyani pasaytirish kabi qator murakkab vazifalar turibdi. Qolaversa, bank tizimida xususiy sektor imkoniyatlarini kengaytirish, eksportchilar sonini oshirish, xususiy investitsiyalarni ko‘paytirish va munosib ish o‘rinlarini yaratish singari masalalar ijrosi ham nihoyatda dolzarb.

Bu vazifalarning har biri katta mas’uliyat va izchillikni talab qiladi. Jahon banki ham O‘zbekiston iqtisodiyoti hali katta darajada kapital investitsiyalariga tayanayotganini, endi esa xususiy sektor, texnologiya, raqobat va mehnat unumdorligiga ko‘proq tayanish zarurligini ta’kidlamoqda. Bu yondashuvning ma’qul jihati shundaki, uzoq muddatli taraqqiyotni faqat ko‘proq mablag‘ sarflash bilan emas, ko‘proq qiymat yaratish bilan ta’minlash mumkin.

Zamonaviy iqtisodiyotda davlatning asosiy vazifasi bozorda o‘zi asosiy o‘yinchi bo‘lish emas, balki o‘yin qoidalarini adolatli belgilash va ularning hamma uchun bir xil ishlashini ta’minlashdir. Investor o‘z mablag‘ini kiritayotganda ertangi kunni ko‘ra olishi, tadbirkor esa davlat idorasi bilan ortiqcha ma’muriy munosabatlarga emas, o‘z mahsuloti va xizmatining sifatiga e’tibor qaratishi kerak. Ana shunda haqiqiy bozor iqtisodiyoti uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Ushbu jarayonda parlamentning vazifasi faqat qonun qabul qilish bilan cheklanmasligi lozim. Qonunning hayotda qanday ishlayotganini ko‘rish, uning natijasini tahlil etish ham muhim. Parlament nazoratining asosiy yo‘nalishlaridan biri ham ana shu – qonunning qog‘ozda emas, hayotda ishlashini ta’minlash.

So‘nggi o‘n yillik bizga bir haqiqatni ko‘rsatdi: iqtisodiyot ochilsa – biznes faollashadi; raqobat kuchaysa – sifat oshadi; investitsiya uchun sharoit yaratilsa – kapital keladi; tadbirkorga ishonch bildirilsa – yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi; texnologiya kirib kelsa – mehnat unumdorligi oshadi. Muhimi, bu jarayonni izchil davom ettirish, erishilgan natijalarni mustahkamlash va ortga qaytmasligini ta’minlashdir.

Bugun biz haqli ravishda O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘zining yangi bosqichiga chiqdi deya olamiz. O‘tgan 2025-yilda real YAIM 7,7 foizga o‘sdi. Investitsiyalar ko‘payishi davom etmoqda. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni 17,9 mingtaga yaqinlashdi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 591,1 trln. so‘mdan oshdi.

Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy qudrati raqamlarda emas, shu raqamlarni yaratayotgan insonlarda namoyon bo‘lmoqda. Ana shu insonlarning ishonchi, mehnati va salohiyati – mamlakatimizning eng katta kapitali. Uni asrash, ko‘paytirish va kelajak avlodga yanada kuchli holda yetkazish esa barchamizning umumiy burchimizdir.

Kobuljon TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining
Byudjet va iqtisodiy masalalar
qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.

O‘rganish

Yoshlarni zararli odatlardan asrash – ustuvor yo‘nalish

Avval xabar berganimizdek, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi ishchi guruhi tomonidan yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari, psixotrop hamda boshqa kuchli ta’sir qiluvchi moddalar iste’molining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar samaradorligi o‘rganilmoqda.

Jumladan, ishchi guruh Navoiy viloyatida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha hududiy komissiyalar faoliyatini, profilaktika, erta aniqlash va manzilli ishlarni tashkil etish borasidagi chora-tadbirlarni o‘rgandi.

Xususan, Karmana va Navbahor tumanlari tibbiyot birlashmalaridagi narkologik xizmat faoliyati tahlil qilinib, aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar bilan olib borilayotgan profilaktik, tibbiy-ijtimoiy hamda tushuntirish ishlariga alohida e’tibor qaratildi.

Shu bilan birga, Navoiy shahri “Xonchorbog‘”, “Zarafshon”, “Mustaqillik”, “Oltin vodiy”, “Bunyodkor” va “Turon” mahalla fuqarolar yig‘inlarida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishildi. Mahallalarda yoshlar va xotin-qizlar bilan individual ishlash, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, Yoshlar ishlari agentligining viloyat boshqarmasi, Navoiy davlat universiteti hamda maktablarda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlarni zararli odatlardan asrash va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasidagi ishlar ham ko‘rib chiqildi.

O‘rganishlar yakunlari bo‘yicha aniqlangan muammolarni bartaraf etish, profilaktika ishlarini manzilli va tizimli tashkil qilish, davlat organlari, tibbiyot muassasalari, ta’lim tashkilotlari, mahallalar hamda jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Aholi bilan ochiq muloqotlar – muammolar yechimida muhim omil

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi a’zosi Jamila Bobonazarova Jizzax viloyatining Zarbdor tumanida xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, mas’ullar va aholi bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

Muloqotlarda Oliy Majlis Senatining 18-yalpi majlisida ma’qullangan qonunlar hamda ko‘rib chiqilgan masalalarning mazmun-mohiyati, ularning fuqarolar huquq va manfaatlarini ta’minlash, aholi turmush farovonligini oshirish hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati tushuntirildi.

Tuman Kengashi deputatlari, doimiy komissiyalar raislari va kotibiyat mudiri bilan uchrashuvda esa qonunlarning mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish, ularning joylarda amalga oshirilishini ta’minlash, shuningdek, Senat qarorlari ijrosi ustidan deputatlik nazoratini kuchaytirish masalalari muhokama markazida bo‘ldi.

Bundan tashqari, mahallalarda aholi turmush farovonligini oshirish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilindi.

Shundan so‘ng senator tumandagi ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasi holatini joyiga chiqqan holda o‘rgandi. Aholi uchun yaratilgan sharoitlar, ichki yo‘llar, obodonlashtirish ishlari hamda infratuzilma obyektlaridagi muammolar ko‘zdan kechirildi. Aholi bilan ochiq muloqotda fuqarolarning murojaat va takliflari eshitildi. Ko‘tarilgan masalalarni mas’ul tashkilotlar bilan hamkorlikda hal etish, aholiga yanada qulay sharoitlar yaratish va tumandagi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy choralar belgilandi.

“Xalq so‘zi”.

Davlat dasturi:

BELGILANGAN VAZIFALAR IJROSI MUHOKAMASI



1 Davlat byudjeti xarajatlari 205,6 trln. so‘mni tashkil qilib, shundan 105,8 trln. so‘m ijtimoiy sohalarga yo‘naltirildi.

Investitsiya va tashqi iqtisodiy faoliyatda ham yuqori natijalar qayd etildi. Birinchi yarim yillikda 28,1 mlrd. dollarlik xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘tgan yildagiga nisbatan 134 foiz o‘sdi.

Deputatlar tomonidan ushbu natijalar Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida iqtisodiy o‘sishni, avvalo, aholi farovonligini yuksaltirish, bandlikni ta’minlash, daromad manbalarini ko‘paytirish va kambag‘allikni qisqartirish borasida olib borilayotgan izchil islohotlarning amaliy samarasi ekani alohida e’tirof etildi. Bu, ayniqsa, aholi bandligi va daromadlarini oshirish borasidagi natijalarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Hisobot davrida 506 ming kishi doimiy ishga joylashtirildi, 2 mln. 616 ming odamning daromadi oshirilib, 546 ming nafar norasmiy band fuqaroning faoliyati legallashtirildi. Mahallalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirishga qaratilgan 104 mingta mikroloyiha ishga tushirilib, ular orqali 246 ming nafar aholi bandligi ta’minlandi.

Ko‘rilgan choralar natijasida ishsizlik darajasi yil boshidagi 4,8 foizdan 4,5 foizga kamaydi. Kambag‘allik darajasi 4,5 foizga tushdi. 2 756 ta mahalla kambag‘allikdan xoli hududga aylantirildi. “Ijtimoiy reyestr”dagi 227 mingta kambag‘al oilaga daromadini oshirishga qaratilgan 300 mingta xizmat ko‘rsatildi.

Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va aholini biznesga keng jalb etish bo‘yicha ko‘rilgan choralar tufayli 37,8 mingga yaqin yangi kichik biznes subyektlari tashkil etildi.

Muhokamalarda deputatlar erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda, davlat dasturida belgilangan ayrim vazifalar ijrosi, maqsadli ko‘rsatkichlarga o‘z vaqtida erishish, hududlarda mavjud iqtisodiy imkoniyatlardan to‘liq foydalanish masalalariga ham to‘xtalib o‘tdi.

Xalq vakillari davlat dasturi ijrosining natijadorligini yanada oshirish yuzasidan qator takliflarni ilgari surdi. Xususan, hududlarda yaratilayotgan ish o‘rinlarining barqarorligi va daromadliligini muntazam baholab borish, kambag‘allikni qisqartirish choralarini har bir mahallaning aniq ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqib manzilli tashkil etish, kichik biznes va mikroloyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish taklif etildi.

Deputatlar dastur ijrosini faqat miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki amalga oshirilgan chora-tadbirlarning aholi hayotiga ta’siri, yaratilgan ish o‘rinlarining barqarorligi, mahallalarda daromad manbalarining ko‘payishi va odamlarning kundalik turmushidagi real o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan ham baholash muhimligiga e’tibor qaratdi.

Mas’ul vazirlik va idoralar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining ijro intizomi va mas’uliyatini yanada oshirish, belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan ta’sirchan parlament nazoratini kuchaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Muhokama davomida davlat dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan qator muhim va dolzarb savollar o‘rtaga tashlandi. Xususan, O‘zLiDeP fraksiyasi a’zosi Muqaddasxon Ahmedova fermer va suv iste’molchilarini belgilangan limitlar asosida suv bilan ta’minlash bo‘yicha qanday choralar ko‘rilayotgani bilan qiziqdi. Mazkur savolga suv xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari Mirolimjon Karimov javob berib, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar haqida atroflicha to‘xtaldi.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi Farhod Zayniyev hisobotda davlat funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazish ishlarini davom ettirish bo‘yicha tegishli takliflar kiritilgani va topshiriq ijrosi ta’minlanganini qayd etib, uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida aynan qaysi davlat funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazish rejalashtirilayotgani hamda bu o‘zgarishlar fuqarolar uchun qanday yengillik va imkoniyatlar yaratishini so‘radi. Bu bo‘yicha qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari Jalol Arashov batafsil ma’lumot berib, sohada amalga oshirilayotgan ishlar va ko‘zda tutilayotgan o‘zgarishlarning mazmun-mohiyati haqida ham axborot berdi.

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi Zuhriddin Mavlonov maktablarni kompyuter sinflari va interfaol doskalar bilan ta’minlash ishlarining borishi bo‘yicha savol berdi. Mazkur masala yuzasidan maktabgacha va maktab ta’limi vaziri E’zozxon Karimova javob berib, bu borada qilinayotgan ishlar, belgilangan rejalar va kutilayotgan natijalar haqida atroflicha to‘xtaldi.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi Zulayho Akramova ijtimoiy reyestrga kiritilgan 227 mingta kambag‘al oila uchun ishlab chiqilgan “Individual rejalar”ning amaliy natijalari, shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilgan korxonalarga taqdim etilayotgan imtiyoz va rag‘batlantirish choralarining samaradorligi bilan qiziqdi. Bu masala yuzasidan kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri Botir Zohidov batafsil ma’lumot berib, amalga oshirilayotgan ishlar va ularning natijalarini izohladi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a’zosi Navro‘zbek Yusupov esa chiqindilarni boshqarishga ajratilayotgan mablag‘lar qanday natija berayotgani, shuningdek, maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash darajasi necha foizga ko‘tarilgani yuzasidan savol berdi. Mazkur masala bo‘yicha Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi direktori Sharifbek Hasanov atroflicha tushuntirish berib, bajarilayotgan ishlar va erishilayotgan natijalar haqida ma’lumot taqdim etdi.

Savol-javoblardan so‘ng deputatlar davlat dasturining 2026-yil birinchi yarmidagi ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining hisoboti bo‘yicha tegishli qaror qabul qildi.

Profilaktika inspektorlarining maqomi qonun darajasida belgilanmoqda

Majlisda “Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorining maqomi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi. Ushbu hujjat bilan profilaktika inspektorining maqomi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, javobgarligi hamda xizmatni o‘tash tartibi belgilanmoqda. Xususan, inspektorning kasbiy faoliyatiga asossiz aralashish, uni xizmat burchi bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga jalb qilish va unga qo‘shimcha vazifalar yuklashga yo‘l qo‘ymaslik nazarda tutilyapti.

Qonun loyihasi bilan profilaktika inspektorining 9 ta asosiy va 6 ta ko‘maklashuvchi vazifalari aniq va qat’iy belgilab berilmoqda. Jumladan, profilaktika inspektori huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi murojaatlarni qabul qilib, ularga tezkor munosabat bildirishi, shaxslarni profilaktik hisob va ma’muriy nazoratga olishi, umumiy, maxsus va viktimologik profilaktikani amalga oshirishi, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga chek qo‘yishi, ma’muriy ishlarni yuritishi, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganlarga himoya orderi berishi, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida profilaktika ishlarini olib borishi hamda jamoat xavfsizligi va ro‘yxatdan o‘tish qoidalariga rioya etilishini ta’minlashi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, profilaktika inspektorining qidiruv tadbirlarida qatnashishi, tegishli organlarga profilaktika ishlarida ko‘maklashishi, probatsiya nazoratidagi shaxslarni tekshirishi, qurol va o‘q-dorilarni saqlash qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat olib borishi, taqiqlangan va ekstremistik guruhlarga aloqador shaxslarni aniqlashda ishtiroki hamda oilalardagi ijtimoiy-maishiy muammolarni o‘rganib, ularni bartaraf qilishda vakolatli organlarga ko‘maklashishi belgilab qo‘yilmoqda.

Shu bilan birga, profilaktika inspektorining aholi oldidagi hisobdorligini kuchaytirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. U har chorakda xizmat hududida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan aholi va jamoatchilik oldida hisobot berishi belgilanyapti. Aholining profilaktika inspektori faoliyatiga nisbatan “ishonchsizlik tashabbusi”ni bildirish mexanizmi ham joriy etilmoqda.

Saydullo AZIMOV,
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari:

– *Hujjatda profilaktika inspektorlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasini mustahkamlash, ularning sha’ni va qadr-qimmatini davlat tomonidan himoya qilish, mehnatiga munosib haq to‘lash, xizmat va uy-joy sharoitlarini yaxshilash, samarali faoliyat yuritayotgan xodimlarni rag‘batlantirishga oid kafolatlar ham o‘z aksini topgan. Qonun loyihasining qabul qilinishi huquqbuzarliklar profilaktikasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqib, har bir mahallada xavfsiz muhitni ta’minlashga, profilaktika inspektorlarining mas’uliyati va aholi bilan ishlash samaradorligini oshirishga, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.*



Muhokama yakunida qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Adliya vazirining parlament so‘roviga javobi ko‘rib chiqildi

Majlisda adliya vaziri A. Toshqulovning “Aholiga notariat sohasidagi xizmatlarning sifatli va shaffof tarzda ko‘rsatilishini hamda mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ta’minlash holati to‘g‘risida”gi parlament so‘roviga javobi ham ko‘rib chiqildi.

Taqdim etilgan javobga ko‘ra so‘nggi yillarda mamlakatimizda notariat institutini takomillashtirish, aholiga qulay xizmatlar ko‘rsatish va sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimizning tegishli farmoni bilan 2020-yil 1-yanvardan nodavlat notarial idoralar faoliyat ko‘rsatadigan bo‘ldi.

Bugungi kunda respublikamizda xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi 1 156 nafar notarius hamda olis va chekka hududlarda 4 nafar davlat notarial idorasi notariusi tomonidan aholiga 70 turdan ortiq notarial xizmatlar ko‘rsatib kelinmoqda.

Sohani raqamlashtirish doirasida fuqarolar uchun o‘zlariga yaqin notariusni aniqlash, navbatga elektron yozilish, ishonchnomani tekshirish, elektron murojaat qilish, mulkka bo‘lgan taqiqni tekshirish imkoniyatlarini beruvchi “E-notarius.uz” portali hamda meros ishlarini rasmiylashtirishda merosxo‘rlar doirasini aniqlab beruvchi elektron “SHAJARA” dasturi ishga tushirildi. Raqamlashtirish natijasida notarial harakatlarni rasmiylashtirishda eksterritoriallik prinsipi joriy etildi.

Hozirga qadar “Notarius” AAT 22 ta vazirlik va idoraning 40 ta axborot tizimi bilan integratsiya qilinishi natijasida fuqarolardan talab etiladigan hujjatlar va ma’lumotlar hajmi 95 foizgacha qisqartirilib, ushbu hujjatlarni notariuslar mustaqil ravishda idoralararo elektron hamkorlik orqali olish yo‘lga qo‘yilgan.

Parlament so‘roviga javobda keltirilishicha, hozirga qadar 20 turdagi notarial harakatlarni onlayn amalga oshirish yo‘lga qo‘yilgan. Ilgari onlayn notarial xizmatlardan foydalanish uchun fuqarolardan BHMning 30 foizi miqdorida qo‘shimcha haq undirilgan bo‘lsa, 2026-yil iyul oyidan onlayn va oflayn notarial xizmatlardan fuqarolarning erkin tanlov asosida foydalanishini ta’minlash maqsadida mazkur qo‘shimcha haq bekor qilingan va xizmat uchun to‘lovlar birxillashtirilgan. Natijada o‘tgan bir oyning o‘zida aholining 9,4 mlrd. so‘mdan ortiq pul mablag‘lari tejalishiga erishilgan.

2023 – 2025-yillar va 2026-yilning o‘tgan davrida “Notarius” AAT orqali 30 dan ortiq tahlil (monitoring)lar o‘tkazilib, qonun hujjatlari talablari buzilishiga yo‘l qo‘ygan notariuslarga nisbatan belgilangan huquqiy ta’sir choralari qo‘llangan hamda kelgusida qonunchilikni bir xilda qo‘llash va aniqlangan kamchiliklarning oldini olishga qaratilgan me’yorlar belgilangan. Shuningdek, doimiy ravishda tahlillar va notarial amaliyotdagi tushunmovchiliklar yuzasidan notariuslarga uslubiy ko‘rsatma va tushuntirishlar berib kelinmoqda.

Anvarxon TEMIROV,
Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi a’zosi:



– *Parlament so‘roviga javobda yangi tahrirda ishlab chiqilgan “Notariat to‘g‘risida”gi qonun loyihasida er-xotinning umumiy birgalikdagi mulki tasarrufi bilan bog‘liq nizolarning oldini olishga qaratilgan yangi mexanizmlar, jumladan, “Er-xotinning birgalikdagi vasiyatnomasi”, “Meros shartnomasi” kabi yangi notarial harakatlar joriy etilishi taklif qilinayotgani ham aytilgan.*


Aholiga qulaylik yaratish maqsadida masofaviy tarzda ko‘rsatiladigan notarial xizmatlar turini ko‘paytirish, notarial amaliyotdagi tushunmovchiliklar yuzasidan notariuslarga doimiy tushuntirishlar berib borish hamda yangi tahrirdagi “Notariat to‘g‘risida”gi qonun loyihasini tayyorlash ishlarini jadallashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirdik.

Majlisda parlament so‘roviga javobda ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha atroflicha ma’lumotlar taqdim etilgani ta’kidlanib, berilgan javob ma’lumot uchun qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

Joriy yilda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 180 mlrd. dollardan oshishi kutilmoqda.

MUSTAQILLIK – HUQUQ VA ERKINLIKLAR RO‘YOBI, QONUN USTUVORLIGI VA ADOLAT TANTANASI



1

So‘nggi bir yarim yilda prokuratura organlari tomonidan aholining 335 mingdan ziyod murojaatlari bevosita hal etildi, qabullarda bo‘lgan 197 ming nafardan ortiq fuqarolar duch kelgan muammolar yechimiga ko‘maklashildi.

Virtual va Xalq qabulxonalariga tushgan 189 mingta murojaatdagi dolzarb masalalar hal etildi. Qonunbuzilishlarga huquqiy baho berish bilan bir qatorda, fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklashga qaratilgan amaliy choralar ko‘rildi. Jumladan, noqonuniy hujjatlarga 660 ta protest keltirildi, 55 mlrd. so‘m zararni undirish haqida sudlarga 1 700 dan ortiq arizalar kiritildi. Qonunbuzilishlarga yo‘l qo‘ygan 557 nafar shaxs intizomiy, ma’muriy va moddiy javobgarlikka tortildi, qo‘pol qonunbuzilishi holatlari yuzasidan 397 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

Bu raqamlar, avvalo, bir haqiqatni ko‘rsatadi, bugun prokuratura faoliyatida asosiy e’tibor qonunbuzilishni qayd etishdan ko‘ra, uning sabablarini bartaraf qilish, inson huquqini tiklash va kelgusida bunday holatlarga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilmoqda.

Qonun ustuvorligi jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini qamrab olgandagina o‘zining haqiqiy mazmuniga ega bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, kambag‘allikni qisqartirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tegishli ro‘yxatlarga noqonuniy kiritilgan oilalarni ulardan chiqarish natijasida 26,7 mlrd. so‘m byudjet mablag‘i ortiqcha va asossiz sarflanishining oldi olindi, aksincha, ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan, ammo hisobga olinmagan 22 600 dan ziyod oilalar ro‘yxatlarga kiritildi.

Yoshlar bilan ishlashda ham aniq manzilli yondashuv yo‘lga qo‘yildi. “Og‘ir toifa”ga kiritilgan qariyb 2 900 nafar yoshga prokuratura organlarining 600 nafarga yaqin rahbar xodimlari mas’ul qilindi. Natijada 6 260 nafardan ziyod yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa muammolari hal etildi.

Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida ham 44 ming nafarga yaqin ayollarga amaliy yordam ko‘rsatildi. Bu ishlar ularning bandligini ta’minlash, moddiy va tibbiy yordam ko‘rsatish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash hamda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni qamrab oldi.

Voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish ham doimiy e’tiborda. Zero, amalga oshirilgan ishlar natijasida qariyb 160 ming nafar voyaga yetmaganning huquqlari tiklandi.

Tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekoturizmni rivojlantirishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat faoliyati yanada kuchaytirildi. Bunda tabiiy ekologik muhitni saqlash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning o‘zboshimchalik bilan egallanishi va noqonuniy qurilmalar qurilishining oldini olishga alohida e’tibor qaratildi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida bahor-kuz mavsumida jami 347 mln. tup ko‘chat ekilishi ta’minlanib, “Yashilmakon.eco” elektron platformasiga kiritildi.

Joylarda har bir mahalla kesimida ish tashkil etilib, mahallalar va aholi tomorqalari atrofida 25 mln. tupdan ortiq ko‘chatlar ekilishi tashkillashtirildi.

> *Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdagi inson huquq va erkinliklarining bevosita amaliyotda o‘z in’ikosini topishi, davlat organlari bilan munosabatlarda yuzaga keladigan noaniqliklarning inson foydasiga talqin qilinishi kabi muhim qoidalar prokuratura uchun ham o‘ziga xos yangi bosqichni boshlab berdi. Shu bois aholi bilan bevosita muloqotga kirishish, sayyor qabullar o‘tkazish, muammolarni joyiga chiqqan holda o‘rganish va eng muhimi, fuqaroning buzilgan huquqini amalda tiklashga alohida e’tibor qaratilmoqda.*

Qolaversa, bevosita prokuratura xodimlari tomonidan ham 376 gektar yer maydonida 235 ming tup ko‘chat ekildi hamda “prokuror bog‘lari” soni 145 taga yetkazildi.

Madaniy meros va turizm sohalaridagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan nazorat o‘rnatish borasida ham tizimli ishlar olib borildi. Ko‘rilgan choralar natijasida madaniy meros obyektlarining 3 628 tasiga muhofaza belgilari o‘rnatilishi, 1 242 ta yodgorlikning himoya tegralari belgilanishi, 3 296 tasining kadastr hujjatlari shakllantirilishi hamda 3 586 ta obyektga jamoatchi inspektor biriktirilishi ta’minlandi.

Bugun tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki yangiish o‘rinlari, oilaviy daromad va hududlar taraqqiyotining muhim omilidir. Shuning uchun tadbirkorning qonuniy faoliyatiga asossiz aralashish, ortiqcha ma’muriy to‘siqlar yaratish yoki uning mulkiy huquqlarini cheklashga yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

Shu maqsadda prokuratura organlari tomonidan tadbirkorlar, jumladan, xorijiy investorlarning qariyb 45 ming nafariga “Tez yordam” tamoyili asosida amaliy ko‘mak ko‘rsatildi. Buning natijasi o‘laroq, 15 mingdan ziyod yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi, salkam 17,5 mingta tadbirkorlik subyekti faoliyati tiklandi va 44 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, “Tashabbusli byudjet” va boshqa dasturlar ijrosini to‘laqonli ta’minlash borasida ham tizimli ishlar olib borildi. Barcha dasturlardagi 9 700 dan ziyod obyektlarda qurilish-ta’mirlash ishlari yakunlanib, foydalanishga topshirilishi ta’minlandi.

Yana bir muhim jihat shundaki, qariyb 11 700 ta obyektni loyihalashda asossiz hisoblangan 5,5 trln. so‘mlik xarajat maqbullashtirilib, ortiqcha mablag‘ sarflanishining oldi olindi.

Shu bilan birga, 48,4 mlrd. so‘mlik sifatsiz ishlar joyida bartaraf etildi, qo‘shib yozishlarga chek qo‘yish bo‘yicha ko‘rilgan choralar natijasida 52,6 mlrd. so‘mlik mablag‘ tejab qolindi.

Aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash, talon-toroj qilinishining oldini olish borasida ham tizimli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlarini fosh etish maqsadida samaradorligi past hamda yo‘qotishlar yuqori bo‘lgan “qizil” hududlarda kuchaytirilgan reyd tadbirlari tashkil etildi. Oqibatda 7 500 dan ziyod holatlarda resurslardan 64 mlrd. so‘mlik noqonuniy foydalanish amaliyotlari borligi aniqlandi.

Byudjet tushumlari ijrosini ta’minlash, yashirin iqtisodiyot shakllanishining turli usul va kanallarini aniqlash, ularga barham berish, sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat o‘rnatish orqali biznesni “soya”dan chiqarishga qaratilgan tadbirlar ham izchil davom ettirildi.

Jumladan, bozorlar va avtoturargohlardagi yashirin aylanmalarga barham berish maqsadida “Raqamli bozor” va “Parking Management System” dasturlari asosida raqamlashtirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Natijada, 347 ta bozor hamda 209 ta avtoturargoh faoliyati to‘liq raqamlashtirilib, ulardagi o‘rtacha oylik tushum miqdori 134 mlrd. so‘mdan 164 mlrd. so‘mga yoki 122 foizga ortdi.

“20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturi doirasida 20 ming nafardan ortiq ishchi-xodimlarning mehnat faoliyati qonuniylashtirilib, ularga 44,5 mlrd. so‘mlik ish haqlari hisoblanishi natijasida yillik 128 mlrd. so‘mlik soliq bazasi yaratildi.

Umuman, qonunlar ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida ko‘rilgan barcha choralar natijasida 883 ming nafardan ziyod fuqarolarning buzilgan huquqi tiklandi, qariyb 81,5 mingta qonunga zid hujjatlarga protest keltirildi, 51 470 ta taqdimnoma kiritildi, sudlarga 3 trln. so‘m zararni undirish haqida 30 mingtaga yaqin arizalar yuborildi.

> *Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li inson qadrini yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, adolatli jamiyat barpo etish va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan. Binobarin, bundan buyon ham “inson – jamiyat – davlat” tamoyili prokuratura organlari uchun muhim dasturilamal bo‘lib qoladi.*

Shuningdek, huquqbuzarlikka yo‘l qo‘ygan 125,5 ming nafar shaxs intizomiy va ma’muriy javobgarlikka tortildi, qo‘pol qonun buzilishi holatlari bo‘yicha 18,5 mingga yaqin jinoyat ishlari qo‘zg‘atildi. Prokuror tekshirishlari va dastlabki tergov davomida 4,7 trln. so‘m zarar undirilishi ta’minlandi.

Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olish, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini kuchaytirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Amalga oshirilgan manzilli profilaktik tadbirlar natijasida kriminogen vaziyati og‘ir mahallalardagi 12 200 nafardan ortiq fuqarolar ishga joylashtirildi, qariyb 10 ming nafari kasbga o‘qitildi va tegishli yo‘nalishlarga jalb etildi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash maqsadida hududlarda zamonaviy videokuzatuv tizimlari, yuz va avtomobil raqamlarini tanib oluvchi kameralar, domofonlar hamda “xavfsiz ko‘cha”, “xavfsiz yo‘lak”, “xavfsiz uy” kabi loyihalar keng joriy qilindi. Bu boradagi tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.

Bundan tashqari, 58 565 ta kiberjinoyat aniqlanib, barchasi hisobga qo‘yilishi ta’minlandi. Shuningdek, 23 mingga yaqin fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklanishiga, yetkazilgan 219 mlrd. so‘m moddiy zarar qoplanishiga erishildi. Bularning barchasi bir maqsadga – insonning tinch va xavfsiz hayotini ta’minlashga xizmat qiladi.

Qolaversa, sud-huquq tizimini, jumladan, prokuratura organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlovni samarali ta’minlash borasida ham ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, prokuratura organlari tomonidan 2025-yil va joriy yilning 6 oyida qariyb 224 mingta jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy ishlarning sudlarda ko‘rilishida prokuror ishtiroki ta’minlandi.

Raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga kirib borayotgan bir paytda prokuratura tizimi ham zamonaviy boshqaruv talablariga mos ravishda yangilanmoqda. “Raqamli prokuratura – 2030” strategiyasi bu borada muhim qadam bo‘ldi.

Hozirga qadar prokuratura organlari faoliyatiga 58 ta axborot tizimi joriy qilinib, davlat organlarining axborot tizimlari bilan integratsiyalar soni 250 tadan oshdi. Ushbu tizimlar ish yurituvlari, hujjat almashinuvi, murojaatlarni ko‘rib chiqish, prokuror nazorati, tergovga qadar tekshiruv, sudlar bilan elektron hamkorlik va idoralararo axborot almashinuvini raqamlashtirish imkonini bermoqda.

Kelgusida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda murojaatlarni tahlil etish, hujjatlarni tasniflash, tergov va prokuror nazorati jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni qayta ishlash hamda qaror qabul qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish rejalashtirilgan. Bu esa prokuratura faoliyatining tezkorligi, ochiqligi va samaradorligini oshirish, inson omilini kamaytirish va fuqarolarning huquqlarini yanada ishonchli himoya qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Korrupsiya qonun ustuvorligi va adolatga, eng muhimi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchga jiddiy tahdid soladigan illatdir. Shu bois unga qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki butun jamiyatning vazifasidir.

Bugun korrupsiyaviy xavflarni oldindan aniqlash, ularni keltirib chiqarayotgan omillarni bartaraf etish va davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Hududlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha manzilli “yo‘l xaritalari” ishlab chiqilib, amaliy chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Masalan, Andijon viloyatidagi Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish jarayonini raqamlashtirishga qaratilgan “e-outsource.uz” dasturi test rejimida joriy etildi. Natijada yetkazib berilayotgan mahsulotlar ustidan nazorat kuchaytirilib, byudjetdan bir yilda o‘rtacha 130 mln. so‘m mablag‘ asossiz sarflanishining oldi olindi.

Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi organlarida ham qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Departament tomonidan iqtisodiy jinoyatlar, xufiyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘rilgan choralar natijasida 16 600 dan ortiq huquqbuzarliklar aniqlanib, 5,2 mingta ma’muriy va 11 470 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atildi.

O‘tkazilgan tezkor tadbirlar davomida 3 682 ta yashirin iqtisodiy faoliyat fosh etilib, 301 mlrd. so‘mlik tovar-moddiy boyliklar olib qo‘yildi, valyutaning noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq 586 ta huquqbuzarlik aniqlanib, 2,5 mln. AQSh dollari musodara qilindi. Majburiy ijro byurosi tomonidan ijro hujjatlari bo‘yicha 94,3 trln. so‘m qarzdorlik, jumladan, davlat foydasiga qariyb 62 trln. so‘m undirildi.

Qonun ustuvorligini ta’minlash, jinoyatlarni sifatli tergov qilish va fuqarolar huquqlarining ishonchli himoyasi, avvalo, malakali kadrlarga bog‘liq. Shu ma’noda, mamlakatimizda turli huquqni muhofaza etuvchi organlar uchun yagona yondashuv asosida tergov kadrlarini tayyorlashning yangi tizimi yo‘lga qo‘yilgani muhim voqeadir.

Mazkur tizim doirasida Huquqni muhofaza qilish akademiyasining tergov yo‘nalishidagi 220 nafar ilk bitiruvchisiga oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplomlar topshirildi va ularning barchasi o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha ishga joylashtirildi.

Qisqa muddatda akademiyada zamonaviy ta’lim infratuzilmasi ixtisoslashtirilgan auditoriyalar, o‘quv-imitatsiya xonalari, kriminalistika laboratoriyalari, axborot-resurs markazi, sport majmuasi va talabalar turarjoyi shakllantirildi.

Eng ulug‘, eng aziz bayramimiz arafasida bosib o‘tgan yo‘limizga nazar tashlar ekanmiz, bir haqiqat tobora yaqqol namoyon bo‘ladi. Mamlakat taraqqiyotining eng muhim mezoni iqtisodiy ko‘rsatkichlar yoki raqamlar emas, avvalo, insonning hayot sifati, huquq va erkinliklarining qay darajada ta’minlanganidir.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li inson qadrini yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, adolatli jamiyat barpo etish va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan. Binobarin, bundan buyon ham “inson – jamiyat – davlat” tamoyili prokuratura organlari uchun muhim dasturilamal bo‘lib qoladi.

Yana ham soddaroq aytganda, bugun prokuratura xodimi uchun eng asosiy mezon aniqlangan qonunbuzilishlar soni emas. Eng muhim natija – buzilgan huquqning tiklangani, adolat qaror topgani, qonun ustuvorligi ta’minlangani va fuqaroning davlatga ishonchi mustahkamlanganidir.

Mustaqillikning 35 yilligi bizga yana bir haqiqatni eslatadi: istiqlolni asrash va uni mustahkamlash faqat iqtisodiy qudratni oshirish bilangina emas, balki huquqiy davlat hamda adolatli jamiyat barpo etish bilan ham bevosita bog‘liq. Shunday ekan, oldimizdagi vazifa aniq: qonun ustuvor bo‘lgan, inson qadri yuksak, adolat qaror topgan va xalq rozi bo‘lgan Yangi O‘zbekistonni barpo etish!

MAQSAD ANIQ – MANZIL YORUG‘

Bugungi dunyo og‘ir va murakkab sinovlar pallasini boshdan kechirmoqda. Geosiyosiy ziddiyatlar keskinlashgan, savdo urushlari va proteksionizm avj olgan, global ta’minot zanjirlari uzilib, inflyatsiya hamda iqtisodiy depsinish ko‘plab davlatlarni noaniqlik iskanjasiga solib qo‘ygan bir davrda yashayapmiz. Hatto yetakchi davlatlarning iqtisodiyotlari ham o‘sish sur’atini saqlab qolish uchun jon-jahdi bilan kurashmoqda. Aynan shunday sharoitda bir davlat dovullararo sobit turibdi, bu – Yangi O‘zbekiston.

Aks sado

Bu sobitlik tasodif emas, davlatimiz rahbari boshchiligida yuritilayotgan aniq maqsadli, pragmatik va inson qadrini markazga qo‘ygan siyosatning tabiiy, qonuniy samarasi. Tashqi dunyo qanchalik notinch bo‘lmasin, ichki taraqqiyotning izchilligi ana shu siyosatning temir mantig‘idir. Bu haqiqatning eng yorqin isbotini biz mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida yana bir bor ko‘rdik. 25-avgust kuni mamlakatimizning barcha hududida bir vaqtning o‘zida 163 ta yirik obyekt ishga tushirildi.

Umumiy qiymati qariyb 50 trln. so‘mlik 72 ta yirik sanoat va servis loyihasi hamda 91 ta ijtimoiy soha obyekti xalqimizga bayram tuhfasi sifatida taqdim etildi. Bu loyihalar hisobiga 15 mingta ish o‘rni yaratilib, byudjetga har yili qo‘shimcha 1 trln. so‘m tushum tushishi ta’minlanadi.

Bu raqamlar ortida quruq statistika emas, minglab oilalarning rizqi, o‘n minglab insonlarning umidi, butun bir xalqning ertangi kunga ishonchi turibdi. Tadbir aynan shu bois quruq marosimga emas, tom ma’nodagi



umumxalq shodiyonasiga aylandi. Hududlardagi studiyalarga yig‘ilgan keng jamoatchilik, ular orqali esa butun xalq Prezidentimizning tabrigini his-hayajon va quvonch bilan tingladi.

Bugungi yutuqlarning ildizini anglash uchun ortda qolgan o‘n yilga nazar solish kifoya. Shu davr ichida iqtisodiyotimiz hajmi 2,5 barobardan ziyod oshdi. Tarmoqlarga 160 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb etilib, umumiy qiymati 76 mlrd. dollarlik 2 163 ta yirik sanoat loyihasi ishga tushirildi, qariyb 6 mln. nafar yurtdoshlarimiz doimiy ish o‘rni bilan ta’minlandi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, so‘nggi o‘n yil mamlakatimiz tarixida yangi uyg‘onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini qurish bosqichi sifatida abadiy muhrlandi. Eng muhimi, bu o‘sishning sifati tubdan o‘zgarmoqda. O‘zbekiston xomashyo sotuvchi davlatdan uni chuqur qayta ishlab, tayyor mahsulotni jahon bozoriga olib chiqadigan iqtisodiyotga izchil o‘tmoqda.

Quvonarlisi, taraqqiyotning tabiat bilan uyg‘unligiga qaratilayotgan e’tibordir. Bugungi loyihalar orasida “yashil” energetikaning salmog‘i ortib bormoqda. Qoraqalpog‘istonda 200 megavattli shamol elektr stansiyasi va 100 megavattli energiya saqlash tizimi ishga tushirildi, Sirdaryo viloyatida 1 573 megavattli quvvat barpo etildi, Navoiydagi yangi energetika loyihalari yiliga 657 mln. kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Bu iqlim o‘zgarishi va resurs taqchilligi global muammoga aylangan asrda kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatni teran anglashning amaliy ifodasi, barqaror taraqqiyot falsafasining real natijasidir.

Pragmatik siyosatning insoniylik o‘lchovi ijtimoiy sohada yanada yorqin namoyon bo‘ladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bugungi loyihalarni faqat investitsiya va eksport ko‘rsatkichlari bilan o‘lchash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Yangi o‘quv yili arafasida 36 ta bog‘cha, 43 ta maktab, 7 ta oliy ta’lim muassasasi va 3 ta shifoxona foydalanishga topshirildi. Yangi Toshkentda o‘n gektar maydonda barpo etilgan Yangi O‘zbekiston universiteti 7 ming, Qarshidagi zamonaviy universitet esa 3 ming talabani quchog‘iga oladi. Garvard universiteti bilan hamkorlikda Rektorlar maktabi ish boshladi, 1-oktyabrdan Sun’iy intellekt instituti faoliyat yuritadi, zamonaviy Milliy kutubxona ilm-ma’rifat maskani sifatida eshik ochdi. Farg‘onadagi yangi tibbiyot muassasasi esa yiliga 60 ming bemorni davolash imkonini beradi.

Mana shu pragmatik siyosatning asl mohiyati, har bir qarorni inson farovonligi va yurt obodligi mezoni bilan o‘lchashdir.

Dunyo notinch, kelajak noaniq bo‘lgan bir pallada bir haqiqat kundek ravshan: sobit yo‘l, izchil siyosat va aniq maqsad – bular karra-karra samara beradi. O‘zbekiston 35 yil avval qo‘lga kiritgan mustaqilligini bugun yangi mazmun, yangi marralar bilan boyitmoqda. U endi faqat suverenitet emas, balki har bir fuqaroning munosib hayoti, har bir xonadonning to‘kin dasturxoni, har bir yoshning porloq kelajagi demakdir.

Dovullararo sobit turgan bu yurt Uchinchi Renessans sari ishonch bilan odimlamoqda. Bu yo‘ldagi eng buyuk kuch esa Prezident va xalqning yagona maqsad yo‘lidagi birdamligidir. Biz, xalq vakillari ham, albatta, bu yo‘lda nafaqat ishonchli hamrohmiz, balki islohotlarning jadal amalga oshirilishida davlat idoralari va xalqimiz bilan hamjihatlikda amaliy ishlar qilish, qonun, qaror va farmonlar ijrosi sifatli bajarilishida mas’ulmiz.

Abdushukur HAMZAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston Ekologik partiyasi
fraksiyasi rahbari.

Muhokama

MABLAG‘LAR SAMARALI SARFLANYAPTIMI?

Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlangan tashkilotlar dastur va loyihalarining amalga oshirilish holatiga bag‘ishlangan muhokama majlisi bo‘lib o‘tdi.

Unda Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha Parlament komissiyasi a’zolari tomonidan qator tashkilotlarning hisobotlari eshitildi. Tadbirda amalga oshirilgan ishlar, loyiha va dasturlar doirasida erishilgan natijalar, shuningdek, joriy yil uchun belgilangan ustuvor vazifalar yuzasidan axborot berildi.

Muhokamalar davomida loyihalarning belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq amalga oshirilishi, ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishi, dasturlarning natijadorligi hamda ijtimoiy ta’siri atroflicha tahlil qilindi.

O‘z navbatida, fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, loyihalar samaradorligini yanada oshirish hamda erishilgan natijalarning barqarorligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Majlis yakunida joriy yil oxiriga qadar belgilangan vazifalar ijrosini sifatli ta’minlash, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va loyiha va dasturlarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

“Xalq so‘zi”.

Endilikda mamlakatimizda texnikumlar bilan dual ta’limni yo‘lga qo‘ygan hamda bitiruvchilar bandligini ta’minlagan tashkilotlarga belgilangan tartibda kredit beriladi.

E’TIROF – INSONGA QANOT

Vatanimiz mustaqilligi ayyomi arafasida turli sohalarda fidokorona mehnat qilib, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shayotgan bir guruh yurtdoshlarimiz davlat mukofotlari bilan taqdirlangan edi.

Kuni kecha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ko‘ksaroy qarorgohida mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan davlat mukofotlarini o‘z egalariga topshirdi. Ayni kunlarda hududlarda ham ushbu yuksak e’tirof sohiblariga mukofotlar tantanali ravishda taqdim qilinmoqda. Shubhasiz, bu quvonchli lahzalarda kishi qalbini faxr va hayajon, Vatanga daxldorlik va shukronalik tuyg‘ulari chulg‘aydi.

Muxbirlarimiz ana shunday yuksak e’tirofga sazovor bo‘lgan yurtdoshlarimizning quvonchli taassurotlari va dil so‘zlarini yozib oldi.

Dil so‘zi

SUVCHILIK – UMR YO‘LIM, AMUDARYO – MEHNATLARIM GUVOHI

Jalg‘asbay UZAKOV,
“Amudaryo” havzasi suv xo‘jaligi birlashmasi Quyidaryo boshqarmasi boshlig‘i, “Do‘stlik” ordeni sohibi:



– Inson quvonchli lahzalarda atrofiga bir qur nazar soladi, bosib o‘tayotgan hayot yo‘li haqida o‘ylaydi. Davlatimiz rahbarining farmoniga binoan “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanganimni eshitganimda menda ham shunday hislar kechdi. 43-yillik mehnat faoliyatimni yana bir bor xayolimdan o‘tkazdim. Shu yillarda turli lavozimlarda ishlagan bo‘lsam-da, kasbimning mazmuni o‘zgarmadi – suv, uni boshqarish va elga yetkazish.

Qoraqalpog‘istonda suv masalasi oddiy xo‘jalik vazifasi emas. U dehqonning mehnati, hosil taqdiri, aholi turmushi bilan bevosita bog‘liq.

Amudaryoning “Qipchoq” gidropostidan quyi qismida suvni belgilangan limitlar asosida taqsimlash, daryo o‘zanini tozalash va to‘g‘rilash, Taxiatosh gidrouzeliga suv oqimini yaxshilash, gidrotexnik inshootlarni ta’mirlash kabi ishlar hayotim mazmuniga aylanib ketgan, desam, ayni haqiqat.

Yutuqlarimiz haqida gapiradigan bo‘lsam, 2023 – 2025-yillarda Amudaryo o‘zanining 3,1 kilometrlik qismi cho‘kindilardan tozalandi, gidrotexnik qurilmalar ta’mirlandi. Natijada Qoraqalpog‘istonning shimoliy tumanlarida suv ta’minoti 10 – 15 foizga yaxshilandi. Bu bir kishining emas, balki sohada mehnat qilayotgan ko‘plab mutaxassislarning birgalikdagi mehnati samarasi.

“Do‘stlik” ordeni men uchun yanada mas’uliyat bilan ishlash, Amudaryo suvidan oqilona foydalanish, aholi va qishloq xo‘jaligini barqaror suv bilan ta’minlash, yoshlarga tajriba o‘rgatish uchun berilgan ishonchdir.

Amudaryo ko‘p yillik mehnatimning guvohi bo‘lib keldi. Men uchun eng katta natija esa uning suvi el-yurtga, dehqon dalasi va insonlar hayotiga manfaat keltirishidir.

KATTA SHARAF VA ULKAN MAS’ULIYAT

Ikrom ABDULLAYEV,
Xorazm Ma’mun akademiyasi raisi, biologiya fanlari doktori, professor, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi:



– Ma’mun akademiyasi tarixiga nazar tashlasak, uning yuksalishida hukmdorlarning ilm-fanga katta e’tibori muhim o‘rin tutganini ko‘ramiz. Bundan o‘n asr muqaddam Xorazm zaminida tashkil qilingan bu dargoh dunyoning turli hududlaridan yetishib chiqqan allomalarni o‘zida jamlagan va jahon ilm-fani tarixida o‘chmas iz qoldirgan ilmiy maktabga aylangan.

Bugun ana shu ezgu an’analar Yangi O‘zbekistonda munosib davom ettirilmoqda. Prezidentimizning ilm-fanga yuksak g‘amxo‘rligi tufayli Ma’mun akademiyasi ham yangi bosqichda rivojlanib, ilmiy salohiyatini mustahkamlab bormoqda.

Jumladan, so‘nggi yutuqlarimiz haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, olimlarimiz tomonidan sho‘rlanish darajasi yuqori yerlarda o‘sishga moslashgan, hosildorligi baland yangi paxta navlari yaratildi. Qum sharoitida eksportbop shumgiyoh o‘simligini boshqa o‘simliklarga inokulyatsiya qilishning agrotexnologik usuli yaratildi va xalqaro patent olindi. Germaniyalik olimlar bilan hamkorlikda tarixiy binolar va yog‘ochlarning aslligini saqlab qolishning ilmiy uslubi yaratildi va Xorazm Ma’mun akademiyasi YUNESKO komissiyasi tomonidan mukofotlandi. Ilmiy jamoamiz erishayotgan bunday natijalar talaygina.

Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan kamtarona mehnatim Prezidentimiz tomonidan yuqori baholanib, davlatimizning yuksak mukofoti – “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlandim. Bu mukofot nafaqat shaxsiy yutuqlarim, balki jamoamizning ilmiy izlanishlari va fidokorona mehnatining yuksak e’tirofi.

Buning uchun, avvalo, Prezidentimizga chuqur minnatdorlik bildiraman. Ushbu mukofot men uchun katta sharaf va ulkan mas’uliyatdir. Bundan buyon ham Ma’mun akademiyasining boy tarixiy an’analarini davom ettirish, uning ilmiy nufuzini yanada yuksaltirish yo‘lida bor bilim va salohiyatimni safarbar etaman.

BILIMLI MINGNI YIQAR

Farangiz G‘ANIYEVA,
Buxoro tumanidagi 30-umumta’lim maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, “Shuhrat” medali sohibi:



– Shogirdlarim ko‘p. Ularning qiziqishi, intilishi, ishtiyoqini ko‘rib, o‘qituvchilik kasbini tanlaganimdan xursand bo‘laman. Ayniqsa, shogirdlar yutug‘ini ko‘rishning gashti bo‘lakcha.

Mana, maktabimiz bitiruvchisi Shohjahon Qobilovni olib ko‘ring. U biologiyadan respublika fan olimpiadasida 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Yangi o‘quv yilidan boshlab yurtimizning yetakchi tibbiyot institutlaridan birida o‘qishni davom ettiradi. Darvoqe, u Namanganda o‘tkazilgan Ibn Sino xalqaro olimpiadasida ham ishonchimizni oqlagan, faxrli 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan edi. Shogirdim erishgan muvaffaqiyatda kamtarona hissam borligidan faxrlanaman.

Maktabimiz Gulshanobod mahallasida joylashgan. 560 nafardan ziyod o‘g‘il-qizlar o‘qimoqda. Kelgusi yilda bilim dargohimiz uchun yangi o‘quv binosi qurish mo‘ljallangan. Tabiiyki, zamonaviy laboratoriya jihozlari ham olinadi. Bu haqda to‘xtalishimning boisi bor. Keyingi yillarda yurtimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga e’tibor kuchaydi. Zamon talabiga mos o‘quv binolari, sport inshootlari, kutubxonalar barpo etilmoqda. O‘qituvchining mehnati o‘z qadrini topyapti. Viloyatimizdagi 151 ta umumta’lim maktabida qurilish, rekonstruksiya va mukammal ta’mirlash ishlari amalga oshirilgani fikrimiz isboti.

Eng ulug‘ bayramimiz arafasida davlat mukofoti bilan taqdirlanganim shijoatimga shijoat qo‘shmoqda. Zero, davr har birimizdan fidoyilik bilan ishlashni taqozo etayotir. Ertamiz egalari dunyodagi tengqurlari bilan har jabhada raqobatlasha oladigan bo‘lib voyaga yetsin! Shu maqsad yo‘lida kuch-g‘ayratimiz, bilim va salohiyatimizni ayamaymiz.

JURNALIST BAXTI

Otabek ISROILOV,
“Xalq so‘zi” gazetasining Toshkent viloyati bo‘yicha muxbiri, “Kelajak bunyodkori” medali sohibi:



– Men baxtiyor jurnalistman. Avvalo, o‘z kasbim, faoliyatim va aziz gazetamizni yaxshi ko‘raman hamda bu bilan faxrlanaman. “Kelajak bunyodkori” medali bilan mukofotlanganim haqidagi farmon e’lon qilingan kunda jurnalistik faoliyatim rasman boshlanganiga to‘qqiz yil to‘lgan edi va faoliyatimning o‘ninchi yilligi ilk daqiqalardanoq e’tirof bilan boshlandi. Aytmoqchi bo‘lganim, men professional matbuotchi sifatida ish boshlagan 2017-yilning uchinchi choragi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda so‘z va matbuot erkinligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarixiy islohotlar boshlangan davrga to‘g‘ri keladi. Mana shu islohot va imkoniyatlar zaminida qalam tebratdim, tanqidiy-tahliliy va badiiy publitsistik maqolalar yozdim, shu orqali ozmi-ko‘pmi el-yurt taraqqiyoti uchun xizmat qilib, gazetxonlar minnatdorligiga sazovor bo‘ldim.

Bu mukofotni meni tarbiya qilib, voyaga yetkazgan muhtaram ota-onam va ustozlarimga berildi, desam, aslo mubolag‘a emas. Ayniqsa, “Mash’al” gazetasining 2011 – 2025-yillardagi bosh muharriri Tolib Hakimovning otalarcha g‘amxo‘rligini qayd etish qarzimdir. Yodda tutish lozimki, yaxshi rahbar yomon kadrni ham to‘g‘ri tarbiya qilib, jamiyatga qo‘shadi. Tolib Hakimov – mening shunday rahbarim bo‘lgan.

“Kelajak bunyodkori” medali ko‘ksimga taqilar ekan, quyoshning bir parchasi joylangandek bo‘ldi. Oftobning bu parchasida ona xalqimning quyoshday qaynoq mehrini his qildim. Jurnalistning baxti shu bo‘lsa, ne ajab?!

YUKSAK ISHONCH QALBIMGA KUCH-G‘AYRAT BAG‘ISHLADI

Yusuf HAKIMOV,
“Nuroniy” jamg‘armasi Oltinsoy tumani bo‘limi raisi, “Shuhrat” medali sohibi:



– Yangi O‘zbekistonda kechayotgan yangilanishlar jarayonida inson omili, ayniqsa, ko‘pni ko‘rgan, hayotiy tajribasi katta maktab bo‘lgan faxriylarimizni ulug‘lash, ularning mahallalarda tinchlik-totuvlikni mustahkamlashdagi o‘rnini oshirish davlat siyosatining bosh mezoniga aylandi. Keksa avlod vakillariga ko‘rsatilayotgan bunday tizimli g‘amxo‘rlik har bir faxriyning qalbida Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini yanada kuchaytirmoqda.

Davlatimiz rahbarining farmoniga ko‘ra kamtarona faoliyatim yuqori baholanib, ulug‘ mukofot – “Shuhrat” medali bilan taqdirlanganimdan cheksiz hayajondaman. Ushbu e’tirofni tumanimizda el-yurt farovonligi, keksalar manfaatlarini himoya qilish hamda yoshlar tarbiyasi yo‘lida fidokorona mehnat qilayotgan barcha nuroniylarimiz faolligiga berilgan yuksak baho deb qabul qildim.

Yurtimizda keksa otaxon va onaxonlarga berilayotgan e’tibor, ularning ijtimoiy hayotdagi mavqeini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar biz, faxriylarni yangi marralar sari ruhlantiradi. Mahallalarda sog‘lom muhitni qaror toptirish, navqiron avlodni milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida kamol toptirish yo‘lida bundan buyon ham kamarbasta bo‘lamiz. Biz kabi nuroniylarning jamoatchilik faoliyatini e’tiborga olib, shunday yuksak mukofotga loyiq ko‘rgani uchun Prezidentimizga samimiy minnatdorligimni izhor etaman. Bu yuksak mukofot zimmamdagi mas’uliyatni ikki hissa oshiradi. Bundan keyin ham bilim va tajribamizni xalqimiz farovonligi, mamlakatimiz rivoji, yoshlarimizning porloq kelajagi yo‘lida baxshida etamiz.

“Xalq so‘zi”.

TOZA ICHIMLIK SUVI – SALOMATLIK GAROVI

Ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash ijtimoiy yo‘nalishdagi davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida qaralayotgan bir paytda byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish, bu borada raqamlashtirishni kuchaytirish, sun’iy intellektni qo‘llash har qachongidan-da muhim.

Tadbir

“O‘zsuvta’minot” AJning joriy yildagi faoliyatiga bag‘ishlangan yig‘ilishda shu haqda so‘z bordi.

– Obihayot – bebaho ne’mat, bejiz uni zarga mengzashmaydi. Qolaversa, markazlashgan toza ichimlik suvi ta’minoti aholining salomatligi ham demakdir, – deydi “O‘zsuvta’minot” boshqaruvi raisining o‘rinbosari Nodir Xo‘jamov. – Davlatimiz rahbari soha rivojiga alohida e’tibor qaratmoqda. Toza ichimlik suvi tizimini takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu bois yil boshidan buyon respublikamiz bo‘yicha 6,1 trln. so‘m mablag‘ hisobidan 2,2 ming kilometr tarmoq tortildi va 116 ta inshoot qurildi. Energiya samaradorligini oshirish maqsadida yuqori energiya sarflaydigan nasoslar tejamkoriga almashtirildi. Bundan tashqari, joylarda 23 MVt quvvatli quyosh panellari o‘rnatildi va bu ham o‘z navbatida, xarajatlarni qisqartirishga, davlat mablag‘laridan yanada samarali foydalanishga turtki berayotir.

Nodir Xo‘jamovning ta’kidlashicha, raqamlashtirishga asoslangan tejamkorlik, zamonaviy o‘lchov vositalariga tayangan holda ishlash davr talabidir. Chunki jo‘mrakni buragan chog‘ingizda oqib keladigan suvning ham tannarxi, xarajati bor. Shu bois qisqa muddat ichida joylarda 106,2 mingta “aqlli” suv hisoblagich o‘rnatildi. Masofadan ma’lumot uzatuvchi suv hisoblagichlar ishlay boshlagani ham suv qadriga yetadigan iste’molchilarga ma’qul. Muhimi, sohada yil sayin raqamlashtirish ulushi sezilarli darajada oshmoqda. Suv ta’minoti tizimini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish maqsadida respublikaning 4 ta shahar va tumanida geoaxborot bazalari yaratildi.

Oqova suv tizimlarida ham katta hajmdagi ishlar bajarildi. Jumladan, 6,3 ming kilometr oqova suv kollektorlari tozalandi. 2,2 ming kilometr suv tarmog‘i va 1 372 ta nasos ta’mirdan chiqarildi. Sohadagi texnik imkoniyatlarni kengaytirish uchun 72 ta yangi maxsus texnika xarid qilindi. Maqsad aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasini yil yakuniga qadar esa 83,5 foizga yetkazish.

Tadbirda mutasaddilar jurnalistlarning savollariga ham atroflicha javob berdi va aholidan tushayotgan har bir murojaat e’tiborda ekanligi, muammolar o‘z vaqtida yechimini topayotganini alohida ta’kidladi.

Abdunabi ALIQULOV
(“Xalq so‘zi”).

Maktabdan oliygohgacha uzilmas rishta

Ko‘pincha qobiliyatli bolani maktabda topamiz, ba’zan oliygohda uning iste’dodi ko‘zga tashlanmay qoladi. Bu rishta nega uziladi va uni qanday mustahkamlash mumkin, degan savol paydo bo‘lishi mumkin.

Har bir sinfda bir nechta o‘quvchidan ustozning ko‘zi quvonadi, chunki u savolni hammadan oldin ilg‘aydi, yechimni kutilmagan yo‘ldan topadi, olimpiadalarda nom chiqaradi. Bugun mamlakatimizda aynan shunday o‘quvchilar uchun alohida imkoniyat yaratilgan. Ammo o‘sha iqtidorli bola universitet ostonasidan hatlab o‘tgach, nima bo‘ladi? Aksariyat hollarda u “o‘rtacha oqim”ga qo‘shilib ketadi va aynan shu yerda ta’limning eng nozik rishtasi, ya’ni maktab bilan oliygoh o‘rtasidagi uzviylik uziladi.

Ta’lim va jamiyat



Iqtidorli o‘quvchi bilan ishlash maktabgacha yoshdan boshlanib, maktabda avj oladi: qo‘shimcha ta’lim, tabaqalashtirilgan o‘qitish, olimpiadalar, ixtisoslashtirilgan maktablar. Oliy ta’limga kelganda esa manzara o‘zgaradi – katta oqimga moslab tuzilgan dastur, o‘rtacha talabaga yo‘naltirilgan uslublar noyob qobiliyatni beixtiyor “tekislab” qo‘yadi.

Vaholanki, iqtidorli talabaning rivojlanishi shu qadar jadal bo‘lishi kerakki, bunday holda ta’limning o‘zi unga moslashishi, individual ta’lim trayektoriyasini qurishi lozim.

E’tibor bering, oliy ta’lim professorlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar qiziq manzarani ochadi. Iqtidorni aniqlashda eng ko‘p tilga olingan mezonlar – turli darajadagi olimpiadalarda ishtirok (59,5 foiz) va iste’dodli yoshga xos shaxs xislatlari (48,6 foiz). “Ish qaysi yoshdan boshlanishi kerak?” degan savolga ko‘pchilik maktab (40,5 foiz) va hatto maktabgacha yoshni (29,7 foiz) ko‘rsatgan. Oliygohda esa eng samarali shakl sifatida ilmiy rahbar bilan yakka tartibdagi ish (81,1 foiz) hamda ilmiy to‘garak va laboratoriyalardagi faollik (45,9 foiz) tan olingan.

Demak, iqtidor yoshlikdan izlanishi, oliygohda esa ilmiy ijod orqali voyaga yetishi kerak. Chunki iqtidorli talabani o‘rtacha oqimga moslash emas, aksincha, ta’limni uning qobiliyatiga moslashtirish lozim.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda bu yo‘nalishda salmoqli qadamlar qo‘yildi. Iqtidorli bolalarni erta aniqlash uchun Prezident, ijod, aniq hamda tabiiy fanlar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan (STEAM) maktablar tizimi barpo etildi. Xorijning yetakchi universitetlarida tahsil olish imkonini “El-yurt umidi” jamg‘armasi ochib bermoqda. Prezident stipendiyasi, davlat stipendiyalari, xalqaro olimpiada hamda tanlovlar – bularning barchasi iqtidorni rag‘batlantirishning amaldagi vositalariga aylandi. Ayniqsa, Prezident va ijod maktablari bitiruvchilarining oliy ta’lim muassasalariga yo‘li yengillashtirildi. Demak, “maktab – oliygoh” rishtasi asta-sekin mustahkamlanmoqda.

Buning jonli misoli sifatida Prezident maktablari tajribasini keltirish mumkin. Masalan, 2026-yilda Toshkentda o‘tgan 38-xalqaro informatika olimpiadasida O‘zbekiston terma jamoasi to‘rtta medalni qo‘lga kiritdi. Bu natija iqtidorni maktab bosqichida aniqlab, zamonaviy fanlar, mentorlik hamda xalqaro raqobatga tayyorlash orqali qanday amaliy samaraga erishish mumkinligini ko‘rsatadi.

Yana bir amaliy misol: “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali xorijda ta’lim olayotgan yoshlar tajribasi. Masalan, maktab davrida fan olimpiadalari va ilmiy loyihalarda faol qatnashgan yigit-qiz keyinchalik nufuzli xorijiy universitetda muhandislik, axborot texnologiyalari yoki biotexnologiya yo‘nalishida tahsil olib O‘zbekistonga qaytgach, ilmiy laboratoriya, startap yoki ta’lim dasturlarida o‘z bilimlarini amaliyotga tatbiq etishi mumkin. Bunday yo‘l iqtidorni faqat mukofot yoki stipendiya bilan emas, balki uzoq muddatli ilmiy va kasbiy trayektoriya bilan qo‘llab-quvvatlash zarurligini ko‘rsatadi.

Shunga qaramay, tizimli yondashuv eng kam rivojlangan bo‘g‘in aynan oliy ta’limdir. Maktabgacha, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limda iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash bo‘yicha izlanishlar ancha oldinga ketgan bo‘lsa, oliygoh darajasida bunday tizimli tadqiqotlar yetarli emas. Natijada maktabda parvarishlangan iqtidor universitetda o‘z rivojini topmay qolishi mumkin.

Xo‘sh, masalani yechish uchun nima qilish kerak? Bu borada mutaxassislar bir necha yo‘nalishni taklif etadi.

Birinchidan, yakka ta’lim rejasi, loyihalar, laboratoriyalar orqali har bir qobiliyatli talabaga ilmiy tadqiqot faoliyati orqali o‘zini namoyon etish imkoni berilishi kerak.

Ikkinchidan, bunday talabalar bilan ishlaydigan o‘qituvchining o‘zi ijodkor, iqtidorni aniqlash va rivojlantirishning zamonaviy uslublarini egallagan bo‘lishi shart. Bu ish hatto dotsent va professor unvonini berish mezonlariga kiritilishi mumkin.

Uchinchidan, iqtidor bilan ishlashning ilg‘or tajribasini muntazam yoritib boradigan maxsus nashr yoki doimiy rukn zarur.

To‘rtinchidan, qo‘shma kengashlar, masofaviy ta’lim, “Ustoz – shogird” an’analari asosida “maktab – oliygoh” hamkorligini institutsional darajada mustahkamlash lozim.

Tasavvur qiling, oddiy bir manzara: tuman maktabida o‘qiydigan bola kechqurun darsdan keyin masala yechib o‘tiribdi. Uning uyida katta laboratoriya yo‘q, kutubxonasi ham boy emas, ammo ko‘nglida katta ishonch bor. Ustozi uni to‘garakka chaqirgan, otasi yo‘lkirasiga pul topib bergan, onasi esa har kuni “bolam, yaxshi o‘qigin, o‘qishdan to‘xtama” deb duo qiladi...

Agar shu bola maktabdan keyin oliygohda ham o‘zini topsa, ilmiy rahbar, laboratoriya hamda haqiqiy imkoniyatga ega bo‘lsa, ertaga u faqat o‘z oilasining emas, butun mahallasi va yurtimizning faxriga aylanadi. Shu bois iqtidorni yo‘qotmaslik – bir bolaning orzusini asrash, bir oilaning umidini qo‘llash, Yangi O‘zbekistonning ertangi kuniga ishonch bilan qarash demakdir.

Botir USMONOV,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor.

REKLAMA

«Elektron Realtor» MCHJ

Erieltor

to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan tashkillashtiriladigan ko‘chmas mulklar va ularga bo‘lgan huquqlar bo‘yicha o‘tkaziladigan savdoga taklif etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi PQ – 142-sonli qaroriga asosan “O‘zsanoatqurilishbank” ATB balansida bo‘lgan:

Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, “Nurafshon” MFY, Ahillik ko‘chasi, 2-“A”uyda joylashgan ishlab chiqarish bino va inshootlari;

Oqqo‘rg‘on tumani, Sobir Rahimov nomidagi MFY, Charog‘on ko‘chasi, 25-uyda joylashgan yakka tartibdagi turarjoy;

Toshkent viloyati, Oqqo‘rg‘on tumani, “Qo‘shtepa” MFY, Faxriylar ko‘chasi, 34-“A” uyda joylashgan to‘yxona binosi sotiladi.

Sotish sharti va narxi bilan “www.e-rieltor.uz” sayti orqali tanishishingiz mumkin.

Savdoga qo‘yilgan mulklarni bevosita joyiga chiqib ko‘rish imkoniyati bor.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar “e-rieltor.uz” platformasi orqali ariza berishlari kerak.

Call-markaz: +998-55-517-22-20.
Rasmiy saytimiz: www.e-rieltor.uz

Fazoviy ma’lumotlar milliy infratuzilmasini shakllantirish va imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida “Hududlarni barqaror rivojlantirish uchun fazoviy ma’lumotlar infratuzilmasi” loyihasi amalga oshirilmoqda.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-542. 23 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 00.30 Topshirildi – 00.40 1 2 3 4 5 6